

Qo'shimcha ma'lumot sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning ijodidan parcha o'qib beriladi va muhokama qilnadi:

*Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.*

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Bugun darsda Zahiriddin Muhammad Bobur haqida nimalarni bilib oldik?

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Hikoyani o'qing mazmunini so'zlab bering. Bobur haqida qo'shimcha ma'lumotlarni topib yozing.

6-Mavzu: Qatag'on qurbanlari xotirasi

Dars maqsadi:

- Zahro Hasanovaning "Manguga muhrlanganlar yodi" hikoya mazmuni bilan tanishtirish;
- jadid bobolarimiz haqida qisqacha ma'lumot berish;
- og'zaki nutqini va lug'at boyligini oshirish.

Tayanch so'zlar: xotira muzeyi, jadid bobolar.

Didaktik materiallar: mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashqni o'tkazish: So'zlarni o'z o'rniغا qo'ying va jumlanı o'qing.

BIZNING AJDODLARNI BURCHIMIZ O'RGANMOQ

II. O'tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)

Hikoyani o'qing mazmunini yuzasidan suhbatlashiladi. Bobur haqida qo'shimcha ma'lumotlar so'raladi.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq. Rasmda tasvirlangan ajdodlarimizni ayting.

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Rasmda kimlarni ko'ryapsiz?
2. Ularning qaysi tomonlari sizga buni aniqlashga yordam berdi?

Mavzuni tushuntirish.

"Aqliy hujum"metodi. Sarlavhani o'qing. O'ylab ko'ring, muallif bu orqali nima demoqchi?

O'quvchilarning fikri tinglanadi va to'ldiriladi.

Matn ustida ishlash. Muallif haqida qisqacha ma'lumot berish.

Zahro Hasanova 1962- yili Toshkent shahrining Labzak dahasida tug'ilgan. "Zukko Alifbo", "Kutilmagan sovg'a", "Topishmoq va tez aytishlar", "Salom, maktab", "Ko'zmunchog'im" nomi bilan kitob holida turli nashriyotlarda chop etildi.

Zahro Hasanovaning "**Manguga muhrlanganlar yodi**" hikoyasi o'quvchilarga navbatma-navbat o'qitiladi. Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.



1. "Shahidlar xotirasi" majmuasi qayerda joylashgan?
2. "Qatag'on qurbanlari xotirasi" muzeyi devorlarida kimlarning portreti osilgan?
3. Vatanparvar deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun ularning nomi xotiramizda mangu yashaydi?

Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

qatag'on – yo'q qilmoq

qurban – biror sabab bilan hayotdan ko'z yummoq.

shahid – haqqoniyat yo'lida jonini fido qilgan odam.

jabr-u jafo – zulm, azob.

jadid – yangilik tarafdori

ong-u shuur – aql-idrok

mangu – abadiy, umrbod.



Mashq daftari bilan ishlash.

Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, shifrlangan so'zni toping. Siz maktablar ochgan va ko'plab darsliklar yozgan ma'rifatparvar shoir, jurnalist, olim kim ekanligini bilib olasiz. (Abdulla Avloniy)

"MILLAT MANFAATINI O'YLAGAN ZOTLAR, SIZNI UNUTMAYDI ASLO AVLODLAR!" shiori ostida berilgan allomalar haqida ma'lumotlar o'qiladi.

Darslikdagi ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda berilishi mumkin:

Abdulhamid Cho'lpon –
shoir, yozuvchi, tarjimon va
jamoat arbobi.



Abdurauf Fitrat – o'zbek tarixchisi,
tarjimon, yozuvchi va shoir,
zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti
asoschilaridan biri.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (*3 daqiqa*)

-Bugun darsda nimalarni bilib oldik? Darsda nimalarni bajardik?
Jadid bobolarimiz haqida qanday ma'lumotga ega bo'ldingiz?

V. Uyga vazifa. (*2 daqiqa*)

"Manguga muhrlanganlar yodi" matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.